


NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2024- YIL YANVAR-MART (DASTLABKI MA'LUMOT)




**Tel.: 69-211-72-00
www.namstat.uz**


Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

2024-yil yanvar-mart oylarida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyati korxonalari tomonidan 5 223,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi 109,8 % ni tashkil etdi.




Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 80,0 % ni tashkil etdi.



2024- yil yanvar-mart oylarida

Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sanoati 133,3 % ga o'sishi hisoblanadi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan 2024-yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 54,0 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 % ini tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoat


2024- yil yanvar-mart oylarida



2024- yilning yanvar-mart oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4178,4 mlrd. soʻmni yoki jami sanoat mahsulotlarining 80,0 % ini tashkil etdi.




Oʻtgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,5 % ni (2024- yilning yanvar-mart oylarida – 1,7 %), oʻrta-yuqori texnologiyali – 6,6 % (6,9 %), oʻrta-quyi texnologiyali – 13,4 % (11,4 %) va quyi texnologiyalisi – 78,5 % (80,0 %) ni tashkil etdi.



2024- yil yanvar-mart oylarida

Jami sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi 40,3 % (2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 125,2 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 18,7 % (2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 76,0 %), elektr uskunalari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 2,9 % (2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 137,7 %), asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish sohasining ulushi - 1,2 % (2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 71,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,5 % (2023-yil yanvar-mart oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 104,0 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmlari




2024- yil yanvar-mart oylarida

Omuxta yem, ming t



Trikotaj ichki kiyimlar, ming dona



Kunjara va qattiq chiqindi, ming t



Paxta tolasi, ming tonna



Paxta chigiti, ming tonna



Paxta linti, ming t



2024-yilning yanvar-mart oylari davomida jami sanoatda 10,2 ming tonna bug'doy uni ishlab chiqarilgan bo'lib, (2023-yilning yanvar-mart oylariga nisbatan 44,0 % ga kamaygan), 12,6 ming tonna paxta tolasi (40,0 % ko'paygan), 4,4 ming. tonna omuxta yem mahsulotlari (47,0 % ga kamaygan) hamda 17,5 ming tonna paxta chigiti (7,4 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Omuxta yem, ming tonna	8,3	4,4	-3,9
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming tonna	18,2	10,2	-7,0
Paxta tolasi, ming tonna	9,0	12,6	3,6
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t	1,7	4,4	2,7

2024- yil yanvar-mart oylarida


Metallurgiya sanoati

2023- yilning yanvar-mart oylarida jami sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,4 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 88,0 % bo'lgan bo'lsa, 2024- yilning yanvar-mart oylari yakuniga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,6 % ga teng bo'lib, fizik hajm indeksi esa, 33,6 % ga ortdi va ishlab chiqarish hajmi 28,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.




Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-mart oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 205,7 mlrd.so'mni yoki jami sanoat hajmining 4,6 % ni tashkil etgan, 2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar sanoati 195,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmidagi ulushi 3,7 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish


Jami sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-mart oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 970,9 mlrd.so'mni, joriy 2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 789,0 mlrd.so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan jami oziq ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish 181,9 mlrd. so'mga kamaygan.



2024- yil yanvar-mart oylarida

Ichimliklar ishlab chiqarish


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2023-yilning yanvar-mart oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 156,0 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 186,0 mlrd. so'mni tashkil etib, 30,0 mlrd. so'mga ko'paygan va jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 3,6 % ni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish


2023-yilning yanvar-mart oylarida jami sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 26,1 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 102,3 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024- yilning yanvar-mart oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,7 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 116,0 % ga teng bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 1444,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Kiyim ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ulushi 9,6 % ni, ya'ni jami 426,0 mlrd so'mni tashkil etgan, 2024-yilning yanvar-mart oylarida kiyim ishlab chiqarish ulushi 11,5 % ni tashkil etib, 600,1 mlrd. so'mga tengdir. Namangan viloyatida kiyim ishlab chiqarish o'tgan 2023-yilning mos davriga nisbatan 174,1 mlrd. so'mga oshgan.



2024- yil yanvar-mart oylarida

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish 94,7 mlrd. so'mni, jami sanoatdagi ulushi 2,1 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2024-yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyati bo'yicha 100,1 mlrd. so'mlik kimyo mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami sanoatdagi ulushi 1,9 % ni, tashkil etdi.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari 3,9 mlrd. so'mni tashkil etib jami sanoatining 0,1 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-mart oylarida koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 0,2 mlrd. so'mga ko'payib, 4,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2023-yilning yanvar-mart oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar sanoatdagi ulushi 1,6 % ni, yani 72,3 mlrd. so'mni tashkil etgan.

Shuningdek, 2024-yilning yanvar-mart oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilga nisbatan 12,9 mlrd. so'mga ko'paygan va 85,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.




2024- yil yanvar-mart oylarida

Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan 2024-yil yanvar-mart oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 980,2 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 18,8 % ini) tashkil etadi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan 284,3 mlrd so'mga ko'payganligi kuzatildi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	1 726,3	1 498,8	-227,5
Issiqlik energiyasi, ming gkal	22,7	47,2	24,5

2024- yil yanvar-mart oylarida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 54,0 mlrd. so'mni (jami sanoat mahsulotlari hajmining 1,0 %ini) tashkil etdi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-mart	2024- yil yanvar-mart	Farqi +/-
Tabiiy suv; suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar - mlrd. so'm	22,3	32,5	10,2
Shahar xo'jaliklarning qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm	4,9	13,6	8,7

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvni qayta ishlash va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 10,2 mlrd. so'm yoki 45,7 % ga ko'payganligi kuzatildi. Shuningdek shahar xo'jaliklarining qayta foydalanishga yaroqsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar 8,7 mlrd. so'mga ko'payganligi kuzatildi.


Namangan viloyati hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Namangan shahriga to'g'ri kelib, 33,0 %ni, shuningdek, To'raqo'rg'on tumani 24,6 % ni, Chust tumani 7,8 %ni, Kosonsoy tumani 6,1 % tashkil etdi.


Namangan viloyati



yanvar-mart o'sish sur'ati



Namangan sh.



mlrd. so'mda


FHI, % da

2024- yil yanvar-mart oylarida

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga To'raqo'rg'on tumani (5 235,3 ming.so'm), Namangan shahrida (2 466,9 ming.so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Namangan viloyati



 o'sish sur'ati
 ming. so'm

Namangan viloyati



yanvar-mart o'sish sur'ati




2024- yil yanvar-mart oylarida


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'yektlari tomonidan 2 292,0 mlrd. so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 43,9 % ni tashkil etdi.

Namangan viloyati



yanvar-mart ulushi % da.



Rayon	Ulushi (%)	Hajmi (mlrd. so'm)
Namangan sh.	59,5	1 024,6
Mingbuloq	31,3	93,4
Kosonsoy	43,7	138,9
Namangan	63,9	180,9
Norin	99,8	87,6
Pop	76,7	84,6
To'raqo'rg'on	4,9	62,5
Uychi	57,9	156,9
Uchqo'rg'on	25,4	59,4
Chortoq	100,0	130,7
Chust	48,9	200,1
Yangiqo'rg'on	100,0	72,6

●●●●●●●●●● *jamidagi ulushi* ●●●●●●●●●● *mlrd. so'm*


Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 4 526 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1 628 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 36,0 % i) Namangan shahriga, 363 tasi (8,0 %) Chust tumaniga, 362 tasi (8,0 %) Namangan tumaniga, 354 tasi (7,8 %) Kosonsoy tumaniga, 322 tasi (7,1 %) To'raqo'rg'on tumaniga, 287 tasi (6,3 %) Uychi tumaniga to'g'ri kelmoqda.

Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan



yangi tashkil etilgan faoliyat yuritayotgan

●●●●●●●● ●●●●●●●●

2024-yil yanvar-mart oylarida


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 921,2 mlrd. soʻmlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan boʻlib, umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi hisobot davrida 17,6 % ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da.

2023-yil yanvar-mart

2024-yil yanvar-mart



Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish umumiy hajmdagi ulushi, % da (2024- yil yanvar-mart)



2024- yil yanvar-mart oylarida

Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 119 ta loyiha bo'yicha 441,1 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliyashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 7,0 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.



Mahalliyashtirish dasturi doirasida 2024-yilning yanvar-mart oylarida 504 ta yangi ish o'rinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 38,5 % ga ko'payganligi kuzatildi.